

**TILIMIZGA KIRIB KELGAN NEOLOGIZMLAR VA ULARNING TAHLILI****Qo‘ziboyeva Go‘zal Saidrasul qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va Adabiyoti universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6654075>

***Anotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda tilimizga kirib kelgan va so‘zlashuvda faol ishlatilayotgan neologizmlar va ularning tasnifiga qaratilgan mulohazalar, ularning o‘zbekcha muqobiliga almashtirish masalalari atroflicha o‘rganilgan. Maqolada tilimizga kirib kelgan neologizmlarning ma‘nosi tahlili berilgan. Bu neologizmlar asosan ingliz tilidan kirib kelayotgani va bu neologizmlarning turlari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** telefon, teletayp, telefaks, kompyuter, bank, subsidiya, kredit, mobil ilova.*

**NEOLOGISMS THAT HAVE ENTERED OUR LANGUAGE AND THEIR ANALYSIS**

**Abstract.** This article examines in detail the neologisms that have entered our language today and are actively used in speech, as well as comments on their classification, their replacement by the Uzbek alternative. The article analyzes the meaning of neologisms that have entered our language. It is stated that these neologisms come mainly from the English language, and the types of these neologisms are given.

**Keywords:** telephone, teletype, telefax, computer, bank, subsidy, credit, mobile application.

**НЕОЛОГИЗМЫ, ВОШЕДШИЕ В НАШ ЯЗЫК, И ИХ АНАЛИЗ**

***Аннотация.** В данной статье подробно рассматриваются неологизмы, вошедшие сегодня в наш язык и активно употребляемые в речи, а также комментарии по их классификации, замена их узбекской альтернативой. В статье анализируется значение неологизмов, вошедших в наш язык. Утверждается, что данные неологизмы произошли в основном из английского языка, и приводятся виды этих неологизмов.*

***Ключевые слова:** телефон, телетайп, телефакс, компьютер, банк, субсидия, кредит, мобильное приложение.*

**KIRISH**

Hozirda barcha sohalarda mavjud bo‘lgan va muomalaga hech qanday qiyinchiliklarsiz kirib kelgan neologizmlar haqida tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bu so‘zlar texnika orqali tilimizga kirib keldi va biz bu so‘zlarni hech qanday muammosiz talaffuz qilmoqdamiz, ma‘lumot tashiyotgan ma‘no doirasi ham barcha bir xil ma‘noda tushunarli. Lekin savol tug‘iladi. Hozirda muomaladagi neologizmlar o‘rniga tilimizda mavjud bo‘lgan muqobiliga almashtirish va bu kabi tilimizga keyinchalik ham kirib keladigan neologizmlarni muomala jarayoniga olib kirmasdan ilgariroq tilizdagi muqobiliga almashtirish. Demak, hozirda tilshunoslikdagi katta muammolardan biri – neologizmlardir. Bizni oldimizda ikkita bajariladigan ish mavjud bular: hozirda muomalada bo‘lgan **neologizmlarni** o‘zbek tilidagi muqobiliga almashtirish va bu muqobilning muomalada ijobiy qabul qilinishiga erishish. Ikkinchidan, texnika asrida tilimizning sofligini saqlash maqsadida keyinchalik kirib kelayotgan neologizmlarni muomalaga kirmasdan ilgari o‘zbekcha muqobilini yaratish va bu ishni amalga oshirishda tilimizni rivojlatiradigan barcha tashkilotlarga birdek ma‘suliyat yuklashdir. Avvalambor, xalqimiz o‘zligini saqlashi bu tilimizga bevosita chambarchas bog‘liqdir.

Hozirgi texnika va texnologiya asrida eng qimmatbaho narsa bu – axborotdir. Uning turli xil shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: rasm, grafik, diagramma yoinki, texnikada amalga oshadigan barcha ko‘rinishlarda. Axborot texnologiyasi asosiy texnik vositalari sifatida hisoblash- tashkiliy texnikadan tashqari aloqa vositalari – *telefon, teletayp, telefaks* va boshqalar qo‘llaniladi. Axborot texnologiyasi insoniyat taraqqiyotining turli davrlarida ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste‘mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya‘ni axborot texnologiyalari mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o‘rinni egallamoqda. **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review).** Axborot texnologiyalari industriyasi majmuini *kompyuter*, aloqa tizimi, ma‘lumotlar bazasi, bilimlar ombori va u bilan bog‘lik faoliyat sohalari tashkil qiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyasini shartli ravishda *“saqlovchi, ratsionallashtiruvchi, yaratuvchi”* turlarga ajratish mumkin. Birinchi turdagi texnologiyalar mehnatni, moddiy resurslarni, vaqtni tejaydi. Ratsionallashtiruvchi axborot texnologiyalariga chiptalar buyurtma qilish, mehmonxona hisob-kitoblari tizimlari misol bo‘ladi. Axborot texnologiyalarining hozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha sohasini axborotlashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish jaraenini 5 asosiy yunalishga ajratish mumkin:

1. Mehnat, texnologik va ishlab chiqarish jarayoni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.

2. Ilmiy tadqiqotlar, loyihalash va ishlab chiqarishni axborotlashtirish.

3. Tashkiliy- iqtisodiy boshqarishni avtomatlashtirish.

4. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohasini axborotlashtirish.

5. Talim va kadrlar tayyorlash jarayonini axborotlashtirish.

Bugungi kunda zamon ham tezashmoqda va bu axborot almashinuvining ham tezlashishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda dunyoning barcha mintaqasida bo‘layotgan ma‘lumotlarni sekundlar ichida bilishga egamiz. Ammo bu ma‘lumotlar orqali tilimizga kirib kelayotgan *neologizmlar* tilning shakily ravishda o‘zgarishiga olib kelmoqda.

Etimologik jihatdan neologizm atamasi yunon tilidan olingan. U tarkib topgan neo “yangi” degan ma‘noni anglatadi va logotip bu “so‘z” ga aylanadi. Demak, bu so‘z “yangi so‘z” deb tarjima qilingan yoki “til ichidagi innovatsion yoki so‘nggi ob‘ekt, vaziyat yoki harakatni tavsiflovchi “so‘z” deb tarjima qilingan. Bugungi kunda dunyoning barcha mintaqasida bo‘layotgan ma‘lumotlarni sekundlar ichida bilishga egamiz. Ammo bu ma‘lumotlar orqali tilimizga kirib kelayotgan *neologizmlar* tilning shakily ravishda o‘zgarishiga olib kelmoqda. Ularga birgina bank sohasi doirasida oladigan bo‘lsak anchagina salmoqqa ega so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin. Deyarli barchasi ingliz yoki boshqa tillardan aslidek olingan so‘zlar hisoblanadi. Neologizmlarning turlari mavjud bo‘lib: **1) Shaklning neologizmlari.** Ushbu turdagi neologizm so‘zlarning yoki tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning morfologik o‘zgarishidan kelib chiqadi. Misol: *fotojurnalistika, ijtimoiy nasroniy, liberal demokrat yoki popemobil.* **2) Semantik neologizmlar.** Bunday holda, u allaqachon tilning bir qismi bo‘lsa-da, boshqa sohalarning elementlari yoki jihatlarini belgilash uchun boshqa ma‘no yoki ma‘noda bir xil tilda olingan so‘zlarni nazarda tutadi. Misol: qidiruv tizimi, virusli, parket yoki virus. **3) Funktsional neologizmlar.** Neologizmlarning bu tasnifi tilga so‘zlarni qo‘shish zarurati bilan bog‘liq, chunki

ma'lum bir ob'ekt yoki vaziyatni belgilashning boshqa usuli yo'q. Chet el so'zlari ushbu tasnifga kiradi. Umuman olganda, ushbu turdagi atamalar aloqa yanada dinamik bo'lishiga imkon beradi. Misol: kilo, jirafa, turtul yoki yong'inga qarshi. **4) Ijtimoiy neologizmlar.** Ushbu so'zlar jamiyatga, insonning axloqiy va madaniy harakatlariga bog'liq ba'zi jihatlarni tavsiflovchi yoki belgilaydigan barcha so'zlar bilan bog'liq. Misol: qo'mita, ish tashlash, yig'ilish yoki jamoaviy bitim. **5) Texnologik neologizmlar.** Ushbu turdagi neologizm ba'zi so'zlar texnologiya va fan sohalarida yuzaga keladigan burilishlar bilan bog'liq. Ular deyarli har doim boshqa tillardan keladi, masalan, ispancha ingliz tilidan. Ushbu tasnif bugungi kunda eng ko'p ishlatiladiganlardan biridir. Misol: skaner, server, selfi yoki kibermakon. **6) Stilistik neologizmlar.** Stilistik neologizmlar - bu odatda ishlatiladigan so'zlarga nisbatan ifoda yoki atamaga nisbatan sezgir va ijobiy ohang berish uchun qo'llaniladigan so'zlar. Aks holda, ular narsalar idrokini o'zgartirish uchun mo'ljallangan so'zlardir. Misol: marhum, qorong'i, ko'r yoki konsert.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

**ID yoki Identifikator** — subyektни identifikatsiya qilish imkonini beruvchi axborot

**Imidj** – uyg'unlashgan tashqi ko'rinish

**IT** (Information Technology) – axborotni hosil qilish, uni yig'ish, tarqatish, saqlash, qayta ishlash, himoyalash kabi vazifalarni bajaruvchi hisoblash texnikasi

**IT** — ingliz tilidan olingan «Information Technology» so'zlarining qisqartmasi bo'lib, o'zbek tilida «Axborot texnologiyalari» deb yuritiladi. Shunday bo'lsa ham, biz bu so'zni IT ko'rinishida talaffuz qilamiz va ishlatamiz.

**IELTS** (International English Language Testing System – Xalqaro Ingliz Tili Sinovi Tizimi) imtihonining maqsadi ingliz tilida o'qish, yozish, tinglab tushinish va gapirish ko'nikmalarining qay darajadaga shakllanganligini baholash hisoblanadi.

**Indeks** (Lotincha: index – ko'rsatkich, ro'yxat) – nom, ism yoki boshqa kombinatsiyalar ko'rsatkichi va ro'yxati hisoblanadi.

**Imo** – aloqa vositasini amalga oshiruvchi ijtimoiy tarmoq.

**Instagram** – Kevin Systrom va Mike Krieger tomonidan yaratilgan hamda rasm va videolarni ulashish uchun mo'ljallangan ijtimoiy tarmoq. Shuningdek, boshqa ijtimoiy tarmoq platformalari orqali ularni yuklash imkonini beradi. Bundan tashqari, foydalanuvchilar rasmlar va videolar uchun raqamli filtrlar qo'llash imkoniga egadir. Instagramda videolar uchun maksimal davomiylilik 60 soniyadir. Instagram Apple App Store va Android Google Play orqali bepul tarqatiladi.

**Jalyuzi** – xonalarni quyosh nuri, yog'in-sochin va boshqalardan muhofaza qilish uchun derazalarning ichki tomoniga o'rnatiladigan moslama

**Kanal** – ijtimoiy tarmoqlarda admin tomonidan boshqariladigan tarmoq

**Karantin** – o'ta xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishini cheklashga karatilgan epidemiyaga qarshi ma'muriy va sanitariya tadbirlari majmui

**Kardigan** – yengil kiyim ustidan kiyiladigan kurtka

**Kargo** – tashiladigan yuklarni sug'urtalash. Kargo – (ispancha cargo – yuk, yuk ortish) 1) kemada tashiladigan yuk; 2) tashiladigan yuklarni sug'urtalash. Chet davlatlardan har qanday yuk olib kirilayotganda davlat budjetiga to'lanadigan pul.

**Kopiyator** – tarjimon

**Komment** – izoh

**Konsultant** – o‘z ixtisosligi bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi mutaxassis

**Konsultatsiya** – ixtisosligi bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, maslahat berish

**Korzinka**-- bu tez rivojlanib kelayotgan supermarketlar tarmog‘idir

**Kreativ** – ijodiy

**Kredit** ~ ma‘lum muddatga foiz evaziga qarz berish.

**Kiber** - bu ilg‘or texnologiyalar kontsentratsiyasi bilan tashkil etish, masalan: kompyuterlar, internet va boshqalar. Kiber iborasi Internet dunyosi bilan bog‘liq ba‘zi atamalardan oldin. Masalan. kiber do‘stlar Bu bir xil virtual do‘st, unda 2 kishi bir-birlarini shaxsan tanimasdan, virtual vositalar bilan muloqot qilishadi;

**Kompetensiya** (lotincha: competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning krnun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba.

**Kontent**(tarkib)- biznes yoki reklama rejasi tarkibi.

**Klon** - nusxa

**Kasting** –tanlov

**Led lampa** – zamonaviy elektr tejamkor lampa

**Lider** – boshlovchi, yetaklovchi

**Link** – havola. Link –Bu nemischa “GHE LENK” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “birga” degan ma‘noni anglatadi.

**Logo**-belgi.

**Like bosmoq** – ijtimoiy tarmoqlarda biror xabarga ovoz bermoq.

**Login** – yashirin maxsus belgi.

**Lunch-biznes**- Biznes egalari qiladigan o‘ziga xos tushlik

**Makler** – sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi vositachi

**Metsenat**- madaniyat va san‘atni, ilm va fanni, ta‘limni, ma‘rifatni rivojlantirishga xizmat qiladigan homiy.

**Memorandum** - diplomatik hujjat; biror davlatning diplomatik yo‘l bilan muhokama qilinishi lozim bo‘lgan masalalar yuzasidan uz nuqtai nazarini bayon qilib yozgan nomasi.

**Messenjer** – tezkor xabar almashish uchun mo‘ljallangan dastur.

**Migrant**-Ingliz tilining Oksford lug‘atida aytilishicha, “migrant o‘z yashash yeridan boshqa joyga vaqtincha, hamishaga ko‘chgan shaxsdir”. BMT hujjatlarda qayd etilishicha, “Migrant termini biron shaxs tomonidan ko‘ngilli ravishda ko‘chish qarori olingan har qanday holda, o‘z qulayliklari nuqtai nazaridan va tashqi faktorlar aralashuvisiz olingan holatlarni ham o‘z ichiga olgan vaziyatlarda qo‘llanilishi mumkin”.

**Mezoterapiya** - tana azolarining ( yuz, soch) ajin va qarishini yoshartiruvchi vitaminlar bilan olib boriladigan kosmetologik muolaja.

**Moodle** – masofaviy dasturning darsliklar saqlanadigan va test topshirish platformasi.

**Mobil ilova** - ma‘lum bir platforma uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan dastur.

**Modem** -qisqartma ikki muddatda hosil bo‘ladi: modulyatsiya va demodulyatsiya . Bu ishlatiladigan qurilma kompyuter fanlari uchun raqamli signallarni analogga va aksincha o‘zgartiradi , shunda ular ongli ravishda uzatilishi mumkin.

**Multimedia** – kompyuterning matn, grafik, tovushli va videoma’lumotlar bilan ishlashga imkon beruvchi qurilmasi. Ana shunday qurilma o‘rnatilgan kompyuter multimedia kompyuter deyiladi.

**Multilingvizm**- Ko‘p tillilik.

**Nam salfetka** – bir martalik ishlatiladigan maxsus namlantirilgan salfetka.

**Nakrutka** – ijtimoiy tarmoqdagi kanallar ko‘rsatkichii sun‘iy ravishda oshirish. Masalan: Obunachilar yoki postlarning namoyishini.

**Netfliks** - ijtimoiy tarmoq.

**Oflayn** – an’anaviy.

**Onlayn** – masofaviy.

**Oversize** – kiyimlarning katta bichimda bo‘lishi.

**Overtime**- futbol musobaqalarida o‘yinning asosiy vaqtdan keyin belgilanadigan qo‘shimcha daqiqalar.

**Payme** - pul o‘tkazmalaridan biri.

**Piar** ~ jamiyat bilan muloqot. Piar - Aslida, xalq bilan muloqat degani, ammo hozirda “e’tiborni tortish” ma’nosi ko‘pchilik uchun tanish.

**PhD**- Falsafa doktori.

**Piling**- tozalash, ko‘chirish.

**Prank**- o‘ziga xos qo‘rqitish yoki nimanidir odamlarga qiziqtirish.

**PIN kod** – mijozning elektron imzosi.

**Plastik karta** – elektron hamyon.

**Plastik rom** – plastikdan yasalgan deraza va eshik romlari.

**Platforma** – apparat va dasturiy ta’minotni ishlab chiqish hamda qo‘llab-quvvatlash uchun asos.

**Protsedura** - bajariladigan ish tartibi; Ko‘proq kosmetologiya va meditsina sohasida qo‘llaniladi.

**Promo-kod** -internet orqali xarid qilganingizda yoki sotuvchini chakana do‘konlarda sotib olishda kerakli maydonga kiritilishi lozim bo‘lgan raqamlar va harflarning to‘plami.

**Ponki** – aladi.

**Poliglot** Ko‘p tilni biluvchi.

**Portal** – ma’lum bir mavzu yoki ilm sohasi bo‘yicha bosh sahifa.

**Pult** – boshqarish moslamasi.

**Piar** - jamiyat bilan muloqot.

**Reality shou** – hayotiy dastur.

**Registratsiya** – ro‘yxatga olish, qayd etish.

### TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Til – millat ko‘zgidir. Uning o‘zligini, ma’naviy qiyofasini ko‘rsatib beruvchi bebaho boylikdir. Ona tilini muqaddas bilish o‘zini, qadr-qimmatini, g‘ururini anglash, tarixini, milliy qadriyatlarini hurmat qilish demakdir. O‘zlashma neologizmlar davriy xususiyatga ega sanaladi. Masalan, bir paytlari yangi atamalar sifatida tilga kirib kelgan *avtobus*, *trolleybus*, *metro* kabi

soʻzlar bugungi kunda yangilik boʻyogʻini yoʻqotib, *zamonaviy qatlamga* oid leksik birliklarga aylangan. 80-yillarning oʻrtalaridan boshlangan ijtimoiy hayotdagi keskin oʻzgarishlar barcha sohalarda boʻlgani singari tilshunoslik sohasida ham tub oʻzgarishlarning sodir boʻlishiga olib keldi. Ayniqsa, bu holat oʻzbek tili leksikasida kuchli boʻldi. Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, oʻzbek xalqining oʻz erkiga, ozodligiga erishishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirdi, tilimizda yuzlab, minglab oʻzlashma neologizmlar paydo boʻldi. Xususan, *iqtisodiyot, bank va kredit, diplomatiya* kabi bank sohalarida yangidan yangi atamalar paydo boʻldi. *Bozor iqtisodiyoti, litsenziya, monitoring, debitor, kvota, menejer, menejment, brutto qarz, frank bozori* kabi atamalar shular jumlasidandir.

#### XULOSA

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, bugungi kundagi neologizmlarning tilimiz leksikonida vaqtlar oʻtib muqobil sifatida qolib ketishining oldini olish va tilimizni sofligicha saqlash uchun chet el leksikonidagi soʻzlarning ishlatilishini cheklash lozim.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.*

1. Raxmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. –T.:200
2. Xojayev A, Nurmonov A, Zaynobodidinov S. Hozirgi oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati.
3. Z. Baratov Iqtisodiy matnlarda neologizmlarning tarjima qilinishi. Bitiruv malakaviy ishi.
4. H. Dadaboyev. Oʻzbek terminalogiyasi. Yoshlar nashriyoti uyi. Toshkent. 2019.